

**Qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasini qoplashning muammoli
jihatlari: Vazirlar Mahkamasining 489-sonli qarori asosida.**

Zikirov Zafarjon Izzatullo o'g'li.

Bank moliya akademiyasi, Magistr

Annotatsiya: Mavzuda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-sonli qarori muhokama qilinadi. Unda qo'shimcha qo'shilgan qiymat solig'iga (QQS) alohida e'tibor qaratilgan. Qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasini qoplash muammoli jihatlari, asosan, soliq to'lovchilar va davlat byudjeti o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq. Salbiy farq, ya'ni QQS bo'yicha soliq to'lovchining soliq solinadigan realizatsiya, hisobga olingan QQS summasidan kam bo'lganda paydo bo'ladi. Bu vaziyatda, soliq to'lovchi davlatdan ortiqcha to'langan soliqlar bo'yicha qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi. Biroq, bu jarayon bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin: Bu tezis QQSning salbiy farq summasini qoplash tizimining muammoli jihatlari va ularning iqtisodiyotga ta'sirini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu muammolarni hal etish uchun aniq takliflar va yechimlar ishlab chiqish zarurati ta'kidlanadi, bu esa soliq tizimining samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qo'shilgan qiymat soligi, salbiy farq, soliq to'lovlari, moliyaviy barqarorlik, byudjet prognozlash, soliq ma'muriyatchiligi, moliyaviy oqimlar.

QQS salbiy farq summasini qoplashda bir qator kamchiliklarni sanab o'tishimiz mumkin:

Moliyaviy barqarorlik: Davlat byudjetiga soliq to'lovlarning kechikish yoki qaytarib olish talablarining ko'payishi byudjetning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Byudjet prognozlash: Salbiy farq summasini qoplash tizimi byudjet

daromadlarini prognoz qilishni qiyinlashtiradi, chunki soliq to'lovchilarning qaytarib olish talablari prognoz qilishdan qiyin.

Soliq ma'muriyatchiligi: Salbiy farq summasini qaytarib olish jarayoni soliq ma'muriyatchiligining murakkablashishiga olib keladi, bu esa ortiqcha byurokratiya va moliyaviy xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Soliq to'lovchilarning moliyaviy oqimlari: Kichik va o'rta bizneslar uchun salbiy farq summasini qoplash jarayonining sekinligi ularning moliyaviy oqimlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

QQS salbiy farq summasini qoplash jarayoni Vazirlar Mahkamasining 14.08.2020 yildagi 489-sonli qarori bilan tartibga solinadi:

Qoplanishi nazarda tutilgan soliq summasining asoslanganligi yuzasidan soliq organi kameral soliq tekshiruvini o'tkazadi. Kameral soliq tekshiruvi soliq organining tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi buyrug'isiz amalga oshiriladi.

Bunda arizada ko'rsatib o'tilgan soliq davri bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining to'g'ri hisoblanishi yuzasidan avval soliq auditi o'tkazilgan bo'lsa, qoplanishi nazarda tutilgan soliq summasining asoslanganligi yuzasidan kameral soliq tekshiruvi o'tkazilmaydi.

Kameral soliq tekshiruvi soliq to'lovchi tomonidan ariza taqdim etilgan kundan keyingi kundan boshlanadi va ellik kungacha bo'lgan muddatda yakunlanishi lozim.

Kameral soliq tekshiruvini o'tkazish davrida soliq organi zarur hujjatlar va mavjud tovar-moddiy boyliklari qoldig'ini ko'zdan kechirish, zarur hollarda sayyor soliq tekshiruvini tashkil etgan holda inventarizatsiyadan o'tkazish Soliq kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan tartibda hududni va binolarni ko'zdan kechirish, Soliq kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan tartibda hujjatlarni talab qilib olish hamda Soliq kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan tartibda uchinchi shaxslardan hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish huquqiga ega.

Soliq organining mansabdor shaxsi kameral soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha aniqlangan holatlarni bayon etgan holda xulosa rasmiylashtiradi va bir

kundan kechiktirmay tegishli qaror qabul qilish uchun soliq organi rahbariga (o'rinbosariga) kiritadi.

Soliq summasini qoplash bo'yicha o'tkazilayotgan kameral soliq tekshiruvi yakuni bo'yicha soliq organining rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan soliq summasini qoplash (to'liq yoki qisman) yoki qoplashni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Soliq summasini qoplash (to'liq yoki qisman) yoki qoplashni rad etish to'g'risidagi qaror soliq to'lovchining arizasi olingan kundan boshlab ellik kundan oshmagan muddatda qabul qilinishi lozim.

Qaror kirish, tavsif-asoslantirish va qaror qismlaridan iborat bo'ladi.

Kirish qismida: qaror qabul qilingan vaqt, joy, qarorni qabul qilgan mansabdor shaxsning F.I.O., lavozimi, soliq to'lovchining nomi, soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR), arizaning soliq organida ro'yxatga olingan sanasi va raqami, qoplanishi so'ralayotgan soliq summasi ko'rsatiladi.

Tavsif-asoslantirish qismida: kameral soliq tekshiruvi o'tkazgan mansabdor shaxsning F.I.O., lavozimi, boshqa soliqlardan bo'lgan soliq qarzini qoplash hisobiga yo'naltiriladigan soliq summasi, bank hisobvarag'iga qoplanishi (qaytarilishi) lozim deb topilgan soliq summasi, qoplanishi rad etilgan (to'liq yoki qisman) hollarda esa, rad etish asoslari batafsil bayon qilinadi.

Qaror qismida: boshqa soliqlardan bo'lgan soliq qarzini qoplash hisobiga yo'naltiriladigan soliq summasi, soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga qaytarilishi lozim deb topilgan soliq summasi, qoplanishi rad etilgan hollarda rad etilgan (to'liq yoki qisman) soliq summasi hamda rad etilgan soliq summasi miqdorida soliq hisobotiga tuzatish kiritish majburiyati, qaror ustidan shikoyat qilish huquqi ko'rsatiladi.

QQS salbiy farq summasini qoplash jarayonidagi muammolardan biri sifatida ekportyor korxonalarini salbiy farq summasini qoplash jarayonini tezlashtirilgan tartibda amalga oshirilishi 7-kun ichida salbiy farq summasini qoplash jarayonini kameral soliq tekshiruidan o'tkazish bu juda qisqa muddat. Ekspertyor korxonalarini salbiy farq summasini qoplash jarayonini

avtomatlashtirilgan tizimga o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan tizimga o'tkazish orqali turli xil ko'rinishdagi korrupsion holatlarni oldini oladi vaqtni tejaydi iqtisodiyot uchun foydali hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga o'z vaqtida undirib olish maqsadida, jamiyat hisob raqamiga realizatsiya qilingan yoki xizmat ko'rsatishdan kelib tushgan zahoti mablag'larning budjetga avtomatlashgan tarzda undirilishi mehanizmini ishlab chiqish lozim. QQS salbiy farq summasini qoplash maqsadida asosiy vosita xarid qilgan yoki import qilingan hollarda salbiy farq summasini ko'rsatgan xizmatiga mos ravishda qoplab berish amaliyotini ishlab chiqish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
2. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi 2020 yil O'RQ-599 sonli
2. O'zbekiston Respublikasi budjet kodeksi 26.12.2013 O'RQ-360 sonli
3. T.S. Malikov 2019 yil "Budjet-soliq siyosati"
4. Vazirlar Mahkamasining 14.08.2019 yildagi "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 489-sonli qarori
5. Vazirlar Mahkamasining 22.09.2021 yildagi "Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 595-sonli qarori
6. O'RQ-813 sonli 30.12.2022 yildagi "2023-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun.
7. Aliyeva S.S., Latipova Sh.M., Xusanov B.Sh., Zaynalov J.R. 2021-yil "Davlat budjeti" o'quv qo'llanma.
8. www.stat.uz
9. www.soliq.uz